

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Tar.01.04 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

TOPILDIYEVA MUYASSAR RAXIMJONOVNA

**O‘ZBEKISTON SSR OLIY SUDI TARIXI
(1924-1991 - yy.)**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi aftoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation

Topildiyeva Muyassar Raximjonovna

О‘zbekiston SSR Oliy sudi tarixi (1924–1991-yy.).....3

Топилдиева Муяссар Рахимжоновна

История Верховного Суда Узбекской ССР (1924–1991 гг.).....25

Topildiyeva Muyassar Raximjonovna

History of the supreme Court in Uzbekistan SSR (1924–1991).....49

E‘lon qilingan ilmiy ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works54

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Tar.01.04 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

TOPILDIYEVA MUYASSAR RAXIMJONOVNA

**O‘ZBEKISTON SSR OLIY SUDI TARIXI
(1924–1991 yy.)**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy Attestatsiya komissiyasida B2018.3.Phd Tar/337 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (<http://ik-tarix.nuu.uz>) hamda "ZiyoNET" axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ziyayeva Dono Xamidovna

tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Muminov Alisher Gaffarovich
siyosiy fanlar doktori, professor

Xasanov Baxtiyor Vaxapovich
tarix fanlari doktori, professor


Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Tar.01.04 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "25" 10 soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Mirzo G'olib ko'chasi, O'zbekiston Milliy universitetining tarix fakulteti, 1-qavat, 106-auditoriya.) Tel.: (99871) 227-12-24; faks: (99871) 246-53-21, (99871)246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz O'zbekiston Milliy universiteti).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (102 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. Bosh bino). Tel.: (99871)236-46-55, faks: (99871)246-02-04).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "11" 10 kuni tarqatildi
(2024-yil "05" 07 dagi "11" - raqamli reyestr bayonnomasi bilan).



X.E.Yunosova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi
t.f.d., professor

J.E.Tog'ayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD)

N.U.Musayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, t.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda umume'tirof etilgan normalar bilan mustahkamlangan inson huquq va erkinliklarini tan olish, himoya qilish hamda ta'minlash mustahkam huquqiy davlatdan rivojlangan faol fuqarolik jamiyatini barpo etishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, jamiyat hayotida inson huquqlarini himoya qilishda sud organlarining tutgan o'rni tobora ortib bormoqda. Ayni vaqtda rivojlanayotgan davlatlar mavjud sud organlari faoliyatini jahon tajribasidan kelib chiqib shakllantirayotgani, sudlarning mustaqilligini to'liq ta'minlashga intilayotganligi sohaning tarixiy ildizlarini tahlil etish hamda uni chuqur ilmiy tadqiq qilishni taqozo etmoqda.

Dunyo miqyosida odil sudlov tizimining paydo bo'lishi, uning tarixiy ildizlari, sohaning shakllanish jarayonida yuz bergan o'zgarishlar, davlat boshqaruvida sudlarning tutgan o'rni va demokratik davlat qurishda sudlar faoliyatini tahlil etishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuningdek, O'zbekiston hududlarida sud tizimining paydo bo'lishi, sobiq Ittifoq davridagi mazkur tizimning yutuq va kamchiliklarini tahlil etish, hukumatning sud ishlariga aralashuvi, sohada milliy kadrlarni qatag'on qilinishi, respublikadagi kuch ishlatar tizimlar faoliyati tarixi hamda ularning Oliy sud bilan bog'liq jihatlarini tadqiq etishga doir ishlar amalga oshirilmoqda.

So'nggi yillarda sud-huquq islohotlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, "O'zbekiston – 2030" strategiyasida sud hokimiyatining mustaqilligini kushaytirish va uning faoliyatini ochiqlashni ta'minlash orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish zarurati bejiz emas. Zero, "Adolat bu – davlatchilikning mustahkam poydevoridir. Adolat va qonun ustuvorligini ta'minlashda esa sud hokimiyati hal qiluvchi o'rinni egallaydi"¹. Mustabid sovet davridagi sud organlarining faoliyatini obyektiv baholash, ularning fuqarolar ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ta'sirini ko'rib chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan sud organlari faoliyatining shakllanishi, ularning muhim jihatlarini ochib berish hamda bu borada ilmiy tadqiqot ishlarini kengaytirish dolzarb ahamiyatga ega hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 28-iyuldagi "Sudlar to'g'risida"gi 723-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2017-yil 21-fevraldagi PF-4966-son "O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 24-iyuldagi PF-6034-son "Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2023-yil 16-yanvardagi PF-11-son "Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 29 декабрдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси // <https://president.uz/uz/lists/view/4057>

farmonlari va mavzuga oid boshqa qonun hujjatlarida belgilangan vazifalarning amalga oshirilishida ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, maʼnaviy-maʼrifiy rivojlantirishda innovatsion gʻoyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yoʻllari” ustuvor yoʻnalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Oʻzbekistonda Oliy sudning tarixiga doir tadqiqotlarni mazmuni va xarakteriga koʻra davriy jixatdan uch guruhga ajratib oʻrganish maqsadga muvofiqdir. Birinchi guruhga sovet davrida nashr etilgan adabiyotlar, ikkinchi guruhga mustaqillik yillarida olib borilgan tadqiqotlar, uchinchi guruhga xorijiy tadqiqotchilarning izlanishlarini kiritish mumkin. 1920-yillarda davlat va jamoat arboblari G.Safarov, N.Toʻraqulov, T.Risqulov, N.Fioletovlarning² ishlarida Turkiston sud tizimi obyektiv aksini topgan. XX asrning 40-90 yillaridagi sovet nashrlarida, birinchi guruhga mansub, xususan: M.Kojevnikov, L.Kraxmalnik, I.Sadovnikov, K.Gorshenin, S.Bordonov, K.P.Erkaxoʻjayev³, S.M.Xodorevskiy, A.Y.Suxarev, L.N.Smirnova, V.V.Kulikova, S.G.Bannikova, V.M.Savitskiy, X.B.Sheynin, G.YE.Petuxov, Y.Titov, P.M.Filippov, V.P.Portnov, M.M.Slavin, I.L.Petruxin va A.O.Larionov⁴lar izlanishlar olib borgan.

Ikkinchi guruhga mansub Sh.Ishanova, U.Mingboyev, M.Abdusalomov, S.Djaborrov, D.Kamolov va O.Jaynarovlarning tadqiqotlarida tarixga boʻlgan munosabat tubdan oʻzgarib, uni haqqoniylik, holislik asosida oʻrganishga katta ahamiyat berildi. Mustaqillikdan soʻng, Oliy sud faoliyati toʻgʻrisidagi maʼlumotlar ommaviy-huquqiy va tarixiy adabiyotlarda paydo boʻldi. Keyinchalik, tarixchi, siyosatchi va huquqshunos olimlar tomonidan sudlar tarixi va ularni faoliyati qator tadqiqot ishlarida ilmiy tahlil etilgan⁵.

²Сафаров Г. Колониальная революция (Опыт туркистана). –М: Госиздат, 1921. 147-с.; Туракулов Н. Ферганская проблема \ Военная мысль. – Т., 1921. –№2. 111-с.; Рыскулов Т. Революция и коренная населения Туркестана. Сборник статей, докладов, речей и тезисов с предисловиям автора. Ч.1. 1917-1919 гг. –Т: Узбек Гос-издат, 1925. 218-с.; Фиалетов Н. Суды казиев в среднеазиатских республиках. Советское право. – М., 1927. – №1. 132-146-с.; Судпроизводство в мусульманских судах (Суда казиев) Средней Азии / Новый Восток. № 23-24. –М., 1928. 204-217-с.

³ Кожевников М. История советских судов. М.,Юриздат. 1949.-376с. Крахмальник Л.Совет халқ судининг тузилиши ва фаолиятининг демократик асослари. -Т., Ўздавнашр,1949.-51 б. Садовников И. Совет суди буржуазия судидан тамомила фарк қилади. -Т., Қизил Ўзбекистон. 1949. -31 б. Горшенин К. Совет халқ суди. -Т., Ўздавнашр. 1949. -63 б. Бордонов С. Социалистик мулкни қўриқлашда совет суди. -Т., Ўздавнашр. 1951.-40 б. Иркаходжаев К.П. К истории верховного суда Узбекской ССР. Журнал, Общественные науки в Узбекистане. –Т., 1965. стр.45.

⁴ Ходыревский С. М. Суд и судебное управление. Воронеж, 1976; Сухарев А. Я. Советский суд. М., 1976; Суд в СССР. Под ред. Л. Н. Смирнова, В. В. Куликова, С. Г. Банникова, В. М. Савицкого, Х. Б. Шейнина. М., 1977; Петухов Г. Е. Советский суд и становление революционной законности в государственном управлении. Киев, Одесса, 1982; Титов Ю. П. Развитие системы советских революционных трибуналов. М., 1987; Филиппов П. М. Судебная защита и правосудие в СССР. Саратов, 1987; Органы юстиции и суды: борьба с преступностью. М., 1988; Портнов В.П., Славин М. М. Становление правосудия Советской России (1917-1922 гг.). М., 1990; Петрухин И.Л. Правосудие: время реформ. М., 1991. Ларионов А.О. Верховный суд США начальные этапы развития // Международный студенческий научный вестник. – 2019. – № 1.

⁵ Ишанова Ш. Нормы шариата и применения их казийскими судами Средней Азии до 1924 года. Автореферат дисс. канд. юрид. наук -Т., 1992. -26 с. Мингбаев У. Верховный суд Республики Узбекистан. -

Uchinchi guruhga mansub xorij tadqiqotchilari O.Caroe, V.Hayit, A.Park, L.L.Zaytseva, V.L.Kalinkovichlarning izlanishlarida sovet davlati sud tizimining boshqaruv asoslari hamda kommunistik mafkurasining jamiyat rivojiga ta'siri, siyosiy cheklovlarning salbiy oqibatlarini, shuningdek, boshqaruvning markazlashtirish oqibatlarini kabi masalalar tahlil etilgan⁶. Yuqoridagi nomlari zikr etilgan olimlar tomonidan sud tarixi va faoliyatini o'rganish sohasida muayyan natijalarga erishilgan. Biroq, ushbu natijalar chuqur ilmiy mazmun kasb etmaydi, muayyan ma'noda cheklangan, yaxlit ilmiy manzarani hosil qilmaydi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Milliy universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq 46-01/81 Toshkent shahri mahallalarida "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili" Davlat dasturida belgilangan vazifalarni amalga oshirish mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. 1924-1991-yillarda O'zbekiston SSR Oliy sudining tashkil etilishi va uning faoliyati tarixini ochib berishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

O'zbekiston SSRda Oliy sud tizimining manbaviy asoslari hamda tarixshunosligi masalalarini va shakllanishi bosqichlarini yoritish;

sobiq sovet davlatining O'zbekiston SSRda sudlar tizimini shakllantirish va yangi sud tizimini tashkil etish siyosatini tahlil qilish;

sud organlariga kadrlarni tayyorlash masalalarini tahlil qilish;

Oliy sudning jinoyat va fuqarolik ishlari yuzasidan yuritgan faoliyatini o'rganish;

siyosiy qatag'onlik sharoitida Oliy sud faoliyatidagi o'ziga xos jihatlarni o'rganish;

Ikkinchi jahon urushi yillarida Oliy sud faoliyatini tahlil etish;

qayta qurish davrida Oliy sud tizimi faoliyatini isloh qilish masalalarini o'rganish;

Oliy sudning sud va huquq-tartibot tizimida tutgan o'rnini yoritish.

O'zbekistonda Oliy sud faoliyatini rivojlantirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning ob'yekti etib O'zbekiston SSR Oliy sudining 1924-1991 yillardagi faoliyati va rivojlanishi tarixi belgilangan.

Tadqiqotning predmetini O'zbekiston SSRda Oliy sudni tashkil etilishi,

Т., «Ўзбекистон» 1994.-200 с. Абдусаломов М. Становление и развитие органов юстиции Узбекистана. -Т., «Адолат», 1996. -44 с. Джаббаров С. Шариат, семейное и обычное право в Узбекистане: история и современность. Опыт социально-правового исследования. -Т., 1996.-122 с.; Жайнаров О. Туркестон АССРда адлия органлари фаолияти тарихи (1918–1924 йй.): тарих фанлари бўйича фалс. докт. (PhD) дисс... автореф. – Т, 2021. – 53 б.; Камолов Д. Ўзбекистон суд тизими тарихи (1925-2020 йй.) Тарих фанлари доктори (DSc) диссертацияси Автореферати.

⁶ Caroe O.Soviet Empire the Turks of Central Asia and Stalinism.-London,ST Martins press,1954.-300 p, Hayit B.Some problems of Modern Turkistan History.-Dusseldorf ,East European Research institute ,1963-60 p. Park A. Bolshevism in Turkistan:1917-1927.-New York :Columbia University press,1957-428 p. Л.Л.Зайцева. «Развитие законодательства о Верховном Суде Республики Беларусь». Верховный Суд Республики Беларусь. История и современность (1923 – 1998). «ИнтерДайджест».1998., В.Л.Калинкович. О становлении и развитии судебной власти независимой Беларуси. Право.by 3/2016.

uning vazifa va vakolatlari, sudlar tizimi va kadrlar siyosatida ro'y bergan o'zgarishlar bilan bog'liq jarayonlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tarixiy tadqiqotlar olib borishning tarixiylik tamoyillari, qiyosiy tahlil, tizimlilik hamda fanlararo yondashuv, muammoviy-xronologik usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

sovet davlatining dastlabki yillarida huquqiy me'yorlarga zid ravishda "troyka"lar, favqulodda sudlar kabi turli sud tuzilmalarning tashkil etilishi, ayniqsa, qatag'onlar davrida ijro etuvchi organlarning qarorlarini ko'r-ko'rona amalga oshirilishi O'zbekiston SSRdagi Oliy sudning ham faqatgina mustaqil yuqori sud instansiyasi sifatida shakllanishiga to'sqinlik qilganligi ko'rsatib berilgan;

ikkinchi jahon urushi yillarida Oliy sud zimmasiga sudlarda "vatan xoinlari", davlat sirlarini oshkor qilganlik uchun jazo choralari kuchaytirish, mehnat va boshqa majburiyatlarni bajarishdan bo'yin tovlash, davlat intizomini buzuvchilar va "sotsialistik mulk"ga zarar yetkazganlarga qarshi qat'iy choralarni ko'rishga qaratilgan vazifalarni qo'yilishi harbiy va fuqarolik sudlari o'rtasidagi chegaralarning uzoqlashishiga olib kelganligi asoslangan;

ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda davlat uchun zarur bo'lgan natijalarni ta'minlab beradigan o'ta markazlashgan va boshqariladigan sudlov tizimining shakllantirilganligi partiya tomonidan berilgan topshiriqlar bo'yicha qarorlarini qabul qilishga yo'naltirilishi partiya va ijroiya organlarining bevosita ta'sir va ko'rsatmalari asosida faoliyat olib boradigan tizimga aylanib qolganligi asoslangan;

Oliy sud tizimida yuqori lavozimlarga rahbar kadrlarni tayinlashda yurist kadrlarning tajriba, bilim va ko'nikmalariga emas balki, ijtimoiy kelib chiqilishi, siyosiy qarashlari va "partiya chaqiriqlariga labbay deb javob beradigan kadrlar"ning tayinlanishi sud qonunchiligini isloh qilish, sudyalarning kasbiy tayyorgarligini oshirish, odil sudlovni amalga oshirish kabi eng muhim vazifalarni amalga oshirilishida eng asosiy to'siqlar bo'lganligi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O'zbekiston SSRda sudlar tizimi va uning tashkil topishi hamda yangi sud tizimini tashkil etishda sovet siyosati mazmunan tahlil qilingan va uning o'ziga xos xususiyatlari asoslab berilgan;

sovet davrida aniqlangan ma'lumotlarga ko'ra, sud faoliyatining samarali rivojlanishiga to'sqinlik qilgan ikki sektor (davlat va fuqarolar) huquqiy savodxonlikning taraqqiyotiga, hududlarda ijtimoiy ahamiyatini baholashga, shuningdek, sud organlari faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatgani, bu holat esa sud tizimining rivoji uchun jiddiy to'siq bo'lganligiga oid jihatlar aniqlangan.

sovet hokimiyati davrida sud tizimiga kadrlar tayinlashdagi kamchiliklar, sudlar faoliyatining qoniqarsizligi, ular qabul qilgan qarorlar ijrosining samarasiz ekanligi, sudlarda ish yuritish muddatlarining belgilanmaganligi hamda sud tizimi ishi sifatini yaxshilash uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmaganligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Tadqiqotda tarix fanida umume'tirof etilgan usul va yondashuvlarning qo'llanilgani, O'zbekiston milliy arxivi va sudlar tizimiga tegishli bo'lgan joriy arxiv materiallari, mavzuga tegishli boshqa manbalar va adabiyotlardan keng foydalanilgani, ilmiy ma'lumotlar asosida chiqarilgan xulosa

va tavsiyalarning tegishli vakolatli tuzilmalar faoliyatida joriy etilganligi hamda olingan natijalarning tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O‘zbekistonda Oliy sud faoliyati bilan bog‘liq muammolarni tahlil qilish, sud organlari faoliyatini takomillashtirish va sud organlarini kadrlar bilan ta‘minlash masalasi va unda yangicha qarashlar va yondashuvlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki O‘zbekistonda Oliy sud faoliyati tarixi bo‘yicha materiallardan oliy ta‘lim muassasalarining talabalari uchun O‘zbekistonning eng yangi tarixidan darslik hamda o‘quv qo‘llanmalar yaratishda, monografiya, risola va xrestomatiyalar tayyorlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarning joriy qilinishi. O‘zbekistonda Oliy sud faoliyatiga oid ishlab chiqilgan ilmiy xulosalar va takliflar asosida:

sovet davlatining dastlabki yillarida huquqiy meyorlarga zid ravishda “troyka”lar, favqulodda sudlar kabi turli sud tuzilmalarning tashkil etilishi, ayniqsa, qatag‘onlar davrida ijro etuvchi organlarning qarorlarini ko‘r-ko‘rona amalga oshirilishi O‘zbekiston SSRdagi Oliy sudning ham faqatgina mustaqil yuqori sud instansiyasi sifatida shakllanishiga to‘sqinlik qilganligi bilan bog‘liq natijalardan O‘zbekiston Respublikasida sudyalari va sud tizimi kadrlarini malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslari o‘quv jarayonida foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2023-yil 18-apreldagi 11-06-23-son ma‘lumotnomasi). Natijada sudyalarni tayyorlash, tayinlash, qayta tayyorlashda va o‘qitishda o‘quv jarayonini takomillashtirishga xizmat qilgan.

ikkinchi jahon urushi yillarida Oliy sud zimmasiga sudlarda “vatan xoinlari”, davlat sirlarini oshkor qilganlik uchun jazo choralarini kuchaytirish, mehnat va boshqa majburiyatlarni bajarishdan bo‘yin tovlash, davlat intizomini buzuvchilar va “sotsialistik mulk”ga zarar yetkazganlarga qarshi qat‘iy choralarni ko‘rishga qaratilgan vazifalarni qo‘yilishi harbiy va fuqarolik sudlari o‘rtasidagi chegaralarning uzoqlashishiga olib kelganligi bilan bog‘liq natijalardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi huzuridagi Sud tarixi muzeyi fondlarini boyitishda foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2023-yil 18-apreldagi 11-06-23-son ma‘lumotnomasi). Bu muzeyga tashrif buyuruvchilarga sovet davridagi Oliy sud faoliyatiga xolisona baho berish imkoniyatini bergan.

ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda davlat uchun zarur bo‘lgan natijalarni ta‘minlab beradigan o‘ta markazlashgan va boshqariladigan sudlov tizimining shakllantirilganligi partiya tomonidan berilgan topshiriqlar bo‘yicha qarorlarini qabul qilishga yo‘naltirilishi partiya va ijroiya organlarining bevosita ta‘sir va ko‘rsatmalari asosida faoliyat olib boradigan tizimga aylanib qolganligi bilan bog‘liq natijalardan “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” darsligida o‘z ifodasini topgan. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2022- yil 17-martdagi 106 raqamli guvohnomasi). Natijalarning qo‘llanilishi sohaga oid izlanuvchilarning odil sudlov munosabatlariga oid bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilgan.

Oliy sud tizimida yuqori lavozimlarga rahbar kadrlarni tayinlashda yurist kadrlarning tajriba, bilim va ko‘nikmalariga emas balki, ijtimoiy kelib chiqilishi,

siyosiy qarashlari va “partiya chaqiriqlariga labbay deb javob beradigan kadrlar”ning tayinlanishi sud qonunchiligini isloh qilish, sudyalarning kasbiy tayyorgarligini oshirish, odil sudlovni amalga oshirish kabi eng muhim vazifalarni amalga oshirilishida eng asosiy to‘siqlar bo‘lganligi bilan bog‘liq natijalardan O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanali” DUK qoshidagi “O‘zbekiston tarixi” telekanali “Taqdimot” ko‘rsatuvi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan. (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanali” DUK qoshidagi “O‘zbekiston tarixi” telekanalining 2022-yil 7-noyabrda 02-31-1859-son ma‘lumotnomasi). Ushbu ilmiy natijalarning qo‘llanilishi teletomoshabinlarda Oliy sudning fuqarolik va jinoiy ishlar bo‘yicha faoliyati, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish borasida amalga oshirgan ishlari bilan bog‘liq tasavvurlarining kengayishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 8 ta ilmiy konferensiya va seminarlarda, shu jumladan, 4 ta xalqaro konferensiya hamda 4 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida aprobatsiyadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, jumladan 5 tasi respublika va 4 tasi xorijiy nashrlarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovadan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 135 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish qismida** mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob‘yekti va predmeti aniqlangan. Uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilinib, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan holda ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprobatsiyasi, e‘lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“O‘zbekiston SSRda sovet sud tizimi va Oliy sudning tashkil etilishi xamda uning asosiy vazifalari”**ga bag‘ishlangan bo‘lib, unda O‘zbekiston SSRda sudlar tizimi va unda Oliy sudning o‘rni, Oliy sudning asosiy funksiyasi, huquqiy asoslari, vakolatlari ko‘rib chiqilgan va tahlil etilgan.

O‘zbekiston xududida Oliy sudning tashkil etilishi, uning faoliyati, rivojlanish bosqichlari, sud tizimida ko‘rib chiqilgan ishlarni o‘rganish va tahlil qilish asnosida muallif tomonidan Oliy sud muassasasining tashkil topishi, tarixiy ildizlari dastlab podsho Rossiyasi bosqinidan keyin vujudga kelganligi ilmiy nazariy jihatdan taxlil etilgan. 1886 va 1898-yillarda qabul qilingan Nizomlarga muvofiq o‘lkada sudlov tizimining asoslari yaratilganligi, ma‘muriy bo‘linishiga qarab sudlar volost, uyezd, shahar sudlariga ajratilganligi, Toshkent Sud palatasi barcha quyi sudlar ustidan nazorat va boshqaruvni amalga oshirgan oliy organ bo‘lganligi⁴, ushbu sudlov

tizimi mahalliy sud tizimini ba'zi jihatlarini o'zgartirib yuborsa-da, butunlay tugatishni nazarda tutmaganligi ko'rib chiqilgan. 1918 yildan boshlab Sovet davlatida sud muassasalarining vujudga kelishi⁷ mahalliy sudlar faoliyatini muomaladan chiqarib borishiga zamin yaratgan.

Turkiston ASSRda 1918-yilda, Buxoro va Xorazm Xalq Sovet Respublikalarida 1920-yilda sud organlari tashkil topgan. Ushbu sudlar 1920-24 -yillar oralig'ida yangicha xususiyatlar bilan takomillashib bordi. 1922-yil RSFSRda "Sudlovni tashkil etish to'g'risida" Qaror qabul qilindi.⁸ Ushbu qarorga asosan, Turkiston ASSRda RSFSR Oliy sudi bo'linmasi yakka o'zi, yoki ikki xalq maslahatchisi bilan ish ko'ruvchi xalq sudlari va okrug sudlari tashkil etildi. Okrug sudlari xalq sudlari tomonidan ko'rilgan ishlarni kassatsiya tartibida, mansabdorlik va boshqa og'irroq ijtimoiy-xavfli jinoyatlarni birinchi bosqichda ko'rardi.

RSFSR Oliy sudi Turkiston bo'linmasi zimmasiga viloyat sudlari ko'rib chiqqan ishlar bo'yicha kassatsiya shikoyatlari va protestlarni qarab chiqish hamda respublikadagi barcha sud organlari ustidan nazorat olib borishni yuklatgan edi.⁹

1922-yilda sovet davlati Sovet Sotsialistik Respublikalari Ittifoqi sifatida qayta tashkil etildi. Bu siyosat Turkistonni ham chetlab o'tmadi. O'lkada milliy-hududiy chegaralanish o'tkazildi. Buning natijasida 1924-1925-yillarda O'rta Osiyoda yangi sovet respublikalari vujudga keldi. Turkmaniston, Qirg'iziston qatorida O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi ham tashkil topdi.

1925-yil 13-fevralda Buxoroda bo'lgan syezdda "O'zbekiston SSR davlatini tuzilishi to'g'risida" Deklaratsiya qabul qilinib, uning huquqiy asoslari yaratildi. Shu munosabat bilan avvalgi yaratilgan barcha davlat tizimlari o'zgartirila boshlandi. Turkiston ASSR, Buxoro XSR va Xorazm XSR davlat sifatida tugatilib, hududining ayrim qismlari O'zbekiston SSR tarkibiga kirdi.

O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya qo'mitasining 1924-yil 13-dekabrda Qarori¹⁰ bilan RSFSR Oliy sudi Turkiston ASSR bo'linmasi o'rnida, O'zbekiston SSR Oliy sudi tashkil topdi. Bu kun davlatimiz tarixidagi birinchi va haqiqiy Oliy sud va sud organlari vujudga kelgan kun hisoblanadi. Shu asnodan O'zbekiston SSR hududidagi barcha sud idoralari qayta tashkil etila boshlandi. Buxoro XSR va Xorazm XSR Oliy sudlari tugatildi. Buxoro XSR va Xorazm XSR Oliy sudlari xalq sudi deb ataluvchi okrug sudlariga aylantirildi.

O'zbekiston SSR Oliy sudi barcha quyi sud organlarini yagona tizimga birlashtirib, sudlar va harbiy tribunallar ustidan nazoratni amalga oshira boshladi. Oliy sudning tashkiliy ishlari bilan Inqilobiy qo'mita (Revkom) shug'ullanardi.¹¹ Inqilobiy qo'mita, birinchi galda faoliyat olib boruvchi Oliy sud tarkibini tasdiqladi va unga ko'ra Oliy sud raisi etib A.Sharofutdinov, birinchi o'rinbosari qilib I.Chudayev, ikkinchisi B.Sharipov, a'zolar Saidaxmedov, Riyaxovskiy,

⁷ Эркахўжаев К. Организации и деятельности Верховного суда УзССР.: Дисс...канд.юрид.наук. -Тошкент. 1965, 145-стр

⁸ O'zMA. P-17 fond, 1-ro'xat, 1053-ish, 3-11 varoqlar.

⁹ Мингбоев У. Олий суд: кеча ва бугун. – Тошкент : "Камалак", 1994, 10-бет

¹⁰ O'zMA. P-837 fond, 1-ro'xat, 42-ish, 52-varoq.

¹¹ Мингбоев У. Олий суд: кеча ва бугун. -Тошкент: "Камалак", 1994, 10-бет

Upelnik va boshqalar tayinlandi.¹²

Oliy sud alohida asosda tashkil etilgan bo'lsa-da, avval boshdanoq mustaqil faoliyat olib bormagan, u O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi qoshida tuzilgan va unga bo'ysungan.¹³ Chiqariladigan hukmlar O'zbekiston SSR MIQ Prezidiumi fikri bilan bog'liq edi. Misol uchun 1925-yil O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi oliy jazoga tortish bo'yicha 52 ta hukmga sanksiya (berdi va Oliy sudning xuddi shunday 5 ta hukmi, qattiq tartibdagi 10 yillik qamoq jazosiga aylantirildi.¹⁴ Bu davrda Oliy sud tarkibidagi ba'zi tuzilmalari, uning ustidan nazoratni qat'iy tartibda bo'lishini ta'minlardi.

O'rta Osiyoda o'tkazilgan milliy xududiy chegaralanish milliy, ma'muriy, siyosiy va iqtisodiy masalalarga o'z ta'sirini o'tkazdi. Xususan, O'zbekiston tarkibida Tojikiston ASSR tashkil topdi, uning faoliyati va sud tizimi ham ko'p jihatdan O'zbekiston bilan bog'liq edi.

1925-yil 23-mayda O'zbekiston SSR MIQ Prezidiumi majlisida, Tojikiston bilan ma'muriy xo'jalik va milliy-madaniy munosabatlarning yaqinligi, O'zbekiston poytaxtidan olisdaligi, pochta va aloqa munosabatlarining qiyinligi, eng asosiysi bu yerda sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakatlarning rivojlanib borayotganligini hisobga olib O'zbekiston SSR Oliy sudining bo'linmasini tashkil etish taklifi ilgari surildi.¹⁵

1924-yilda SSSR ning yangi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Natijada, sud qonunchiligida ham o'zgarishlar bo'ldi. O'sha yili "SSSR va Sovet respublikalarida sudlarni tashkil etish to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi va mazkur qonunga asoslanib, 1926-yil 29-sentabrda O'zbekiston SSR MIQ "O'zbekiston SSRda sudlarni tashkil etish to'g'risida" Qonun ishlab chiqildi va bu qonun 1927-yil 15-fevraldan kuchga kirdi.¹⁶ Garchi bu qonun "markaz" ishlab chiqargan qonunlarga bog'liq bo'lsa-da, u O'zbekiston SSR sud-huquq tizimi haqidagi alohida qonun hisoblangan. Ushbu qonunda Oliy sud to'g'risida alohida normalar keltirib o'tilgan bo'lib, uning vazifasi va strukturasi aniq belgilangan edi.

Albatta, bu taqliddagi qonunlar ishlab chiqilganligi, O'zbekistonda sud-huquq tizimi yangilanib borilganligidan dalolat beradi. Ammo, bu qonunlar davlat va tuzum manfaatlaridan kelib chiqqan bo'lib, mahalliy aholining istak-manfaatlariga, mentalitetiga mos kelmagan aholiga yaqin bo'lgan qozi va biy sudlari tugatilishi esa aholi qadriyatlariga qarshi qo'yilgan qadam bo'lgan. To'g'ri davlatda odil sudlovni faqatgina sud amalga oshiradi. Biroq, bu holatga aholi hali moslashmagan edi. Ayrim tarixiy ma'lumotlarda aholi o'zining talab va istaklaridan kelib chiqib, shariat asosida ish ko'ruvchi bunday sudlarning faoliyati cheklana boshladi,¹⁷ shuningdek qozilarning o'zi qozixonalarni yopishni iltimos qilganligi aytiladi.¹⁸

¹² O'zMA. P-87 -fond, 1-ro'yxat, 8-ish, 44-varoq.

¹³ История советского государства и право в Узбекистане. (под редакции ак. Х.С.Сулайманова и А.И.Ишанов) Т-2. – Ташкент: 1969. 26 - стр

¹⁴ O'zMA. P-86-fond, 1-ro'yxat, 2224-ish, 278-varoq.

¹⁵ O'zMA. P-86-fond, 1-ro'yxat, 2222-ish, 28-varoq.

¹⁶ История советского государства и право Узбекистана. Т-2. – Ташкент. 1969. 186 - стр

¹⁷ Абидова Н. Суды казиев и особенности процесса их ликвидации в Узбекской ССР. (1917-1928 г.г.). Автореф. дисс... канд.юрид.наук. – Ташкент. 1974, 112-стр

¹⁸ История советского государства и право Узбекистана. Т-2. –Т.: 1969. 191 - стр.

Ammo bu qanchalik to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini shundan bilish mumkinki, sovet davlati paydo bo‘lgandan buyon, doim qozilik sudlari vakolatlari, kerak bo‘lsa, faoliyatini cheklab boruvchi qonun-qoidalar ishlab chiqqan.

1927-yil oxiriga borib Tojikiston ASSR sud tizimida o‘zgarish bo‘ldi. Ya’ni, O‘zbekiston SSR Oliy sudi Tojikiston bo‘linmasi o‘rnida, Tojikiston ASSR Bosh sudi tashkil etildi. Tojikistonning Tog‘li-Badaxshon va boshqa viloyatlariga Bosh sudning vakillik institutlari kiritildi. Shu bilan bir vaqtda Bosh sud plenumi qarori asosida birinchi instansiya sudlari tashkil topdi.

1929-1933-yillarda O‘zbekistonda Oliy sud va boshqa sud-huquq organlarining asosiy e’tibori qishloq xo‘jaligi, kolxozlarga zarar yetkazishning oldini olish, o‘g‘rilik va talonchilikka qarshi kurashish bo‘lib qoldi. Shu maqsadda 1932-yil 23-sentabrda O‘zbekiston SSR Adliya Xalq Komissarligi “Paxta yig‘im terimi va paxta tayyorlash kompaniyasida adliya organlarining ishtiroki to‘g‘risida” qaror chiqarildi. Bu bejizga emas, o‘sha vaqtlarda O‘zbekistonda “paxta yakkahokimligi”ni o‘rnatish choralari ko‘rilayotgan edi. O‘zbekistonning “markaz”ga beradigan asosiy mahsuloti ham paxta bo‘lib, bu ishlarni qattiq nazoratga olinishi kutilmagan voqea emas edi. 1930-yilda respublikada rayonlashtirish ishlari olib borildi. Buning natijasida okruglar tugatildi. Shu bilan birga okrug sudlari va okrug prokuraturalari ham tugatildi.¹⁹ O‘zbekistonda ikkita sud: Xalq sudlari va Oliy sud qoldi xolos.

1930-yillarda jamiyat hayoti va siyosatda ham bir qator o‘zgarishlar yuz bera boshladi. 1929-yil 24-iyulda SSSR Oliy sudi va prokuraturasi to‘g‘risidagi yangi qaror qabul qilindi.²⁰ O‘zbekiston SSR Adliya Xalq Komissarligi 1929-yil avgustida yangi jinoyat protsessual Kodeksini ishlab chiqdi. Bu kodeks 1926-yil JPKdan ixchamlashtirilganligi bilan farq qilardi. Bunda surishtiruv va tergov qilish ishlari birlashtirildi. Oliy sud va boshqa sudlov organlari huzuridagi tergov organlari prokuratura organlariga olib berildi. Bu esa qonunchilikning buzilishi va qatag‘onlarning boshlanishiga olib keldi²¹.

Fikrimizcha, shu qisqa vaqt ichida ham sud-huquq tizimi va jamiyat hayotida bir qancha o‘zgarishlar sodir bo‘lishi, 1931-yil 20-iyulda “Sudlarni tashkil etish to‘g‘risida”gi yangi tahrirdagi Qonun qabul qilinishiga olib keldi.²² Bu Tojikiston ASSRning 1929-yilda O‘zbekiston tarkibidan chiqib, Ittifoqdosh sovet respublikasiga aylanishi, okrug sudlarining tugatilishi va xalq sudlari salmog‘ining ortishi, Oliy sud va boshqa quyi sudlardagi tergov organlarining prokuraturalarga olib berilishi kabi o‘zgarishlar bilan bog‘liq edi.

Yuqoridagi taxlillar asosida “sud”, “sud organlari” tushunchalari, tarixiy bosqichlar, sovet sud tizimining o‘ziga xos xususiyatlari, O‘zbekiston SSR Oliy sudining dastlabki faoliyatiga oid manbalar hamda adabiyotlar nazariy va amaliy jihatdan o‘rganilgan va mualliflik pozitsiyasi shakllantirilgan. Mazkur totalitar tuzum davrida nafaqat sud organlari, balki Oliy sud ham cheklangan vakolati doirasida faoliyat olib borgan. Buni sovet tuzumi davrida sud tizimiga hech qachon

¹⁹ История советского государства и права в Узбекистане. -Т. 1969, 405- стр.

²⁰ История советского государства и права в Узбекистане. -Т. 1969, 405 -стр.

²¹ Хамидова М. Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи. –Тошкент: ТДЮИ, 2004, 78-бет.

²² Собрание узаконие и распоряжение УзССР. 1931, №25, 215 - стр.

alohida hokimiyat sifatida qaralmaganida ham ko‘rish mumkin.

Shunday qilib, O‘zbekiston Oliy sudiga asos solingach, u O‘zbekiston hududidagi barcha sudlov organlari yagona tizimga birlashtirdi va hatto xarbiy tribunallar ustidan nazoratni amalga oshira boshlagan.

“O‘zbekiston Oliy sudi boshqaruv tizimining ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi o‘rni va kadrlar masalasi (1925-1945-yillar)” deb nomlangan ikkinchi bobda, O‘zbekiston SSR Oliy sudining fuqarolik va jinoiy ishlar bo‘yicha yuritgan faoliyati, Oliy sudda kadrlar masalasining siyosiy qatag‘onlik sharoitidagi faoliyati, O‘zbekiston SSR Oliy sudining Ikkinshi jahon urushi arafasi va urush yillaridagi faoliyatiga oid masalalar yoritib berilgan.

Dissertatsiyada 1925-yilga qadar O‘zbekiston SSR Oliy sudi o‘rnida faoliyat olib borgan, RSFSR Oliy sudining Turkiston ASSR bo‘linmasi fuqarolik ishi bilan shug‘ullanmaganligi, bu xildagi ishlar RSFSR Oliy sudining o‘zida ko‘rilganligi taxlil etilgan. O‘zbekiston SSR Oliy sudi tuzilgach, uning ixtiyoriga fuqarolik ishlarini hal etish funksiyasi ham berildi²³. O‘zSSR Oliy sudi Faoliyatining ilk davrida, bu turdagi masalalarni hal etish tajribasi yetishmasligi, bir qancha qiyinchiliklarga olib keldi. 1925-yilning fevralida, RSFSR Oliy sudi o‘zidagi, o‘lkaga tegishli 35 ta fuqarolik ishini O‘zSSR Oliy sudiga yubordi. Bundan tashqari, hay‘atlarga shu yilning sentabriga qadar 94 ta ish kelib tushgan. Ulardan bor-yo‘g‘i 38 tasi ko‘rib chiqilgan, 56 tasi esa muhokama etilmay qolgan. Qayta ko‘rib chiqish tartibida, 45 ishdan 14 tasi ko‘rib chiqilib, 31 tasi qolgan.

Oliy sudda fuqarolik ishining bu darajada sekin korilganligi sababi, bu turdagi ishlar Oliy sud xodimlari uchun yangi va o‘rganilmagan edi. Bundan tashqari, kadrlar masalasidagi muammolar bo‘lib, barcha ishlar hay‘at raisi zimmasiga yuklab qo‘yilgan edi. Keyingi yillarda ushbu kamchiliklar bartaraf etib borildi. Fuqarolar ishi bo‘yicha sud va kassatsiya hay‘ati, tashkiliy ishlarni yo‘lga qo‘yib borib, muammolar yechimi topildi. Bunda qilinadigan ishlarning rejalari oldindan tuzib chiqila boshlandi. 1927-yilda, oldingi yillardan saboq chiqarilib, masalalarni to‘g‘ri hal etish, huquq va qonunning alohida normalari bo‘yicha to‘g‘ri sharh berish asosiy vazifa etib belgilandi.

Kassatsiya hay‘atining joylarda fuqarolik ishlari bo‘yicha yuritadigan faoliyati, sinfiy siyosatning u yoki bu qonun bo‘yicha tushunilishi, sudda ishni aniq e‘tiborga olinishi bilan ahamiyatga ega edi. Fuqarolik huquqi haqidagi munozarali masalalar mohiyatiga sud organlari ko‘pincha sinfiy kurashning namoyon bo‘lishi sifatida e‘tibor qaratishgan. Shu sababdan bu masala nafaqat Oliy sudda, balki quyi sudlarda ham mana shu jihatlar inobatga olinib, haqiqatni ochishga harakat qilgan, ishni oydinlashtirish, mehnatkashlar huquqini himoya qilish uchun tashabbus ko‘rsatilgan. Yuqorida ta’kidlanganidek, sudlar tuzum siyosatini o‘zida aks ettirgan.

Quyidagi jadvalda kassatsiya hay‘atining fuqarolik ishi bo‘yicha faoliyatiga e‘tibor qaratilsa, oldingi yillarga nisbatan ijobiy bo‘lganligini ko‘rish mumkin:

²³ O‘zMA. P-86 fond, 1-ro‘yxat, 2450-ish, 284-varoq.

Yillar	Kelib tushgan ishlar	Muhokama etilgan	Xal etilgan	Bekor qilingan	Ishi to'xtatilgan	Muhokama etilmaganlar
1925 y.	216	103	35	58	10	10
1926 y.	248	27	13	108	26	74
1927 y.	334	101	15	186	11	21

Ta'kidlash joizki, o'rganilgan yillar kesimida fuqarolik masalalarini hal etish tajribasi Oliy sud hay'atlarida hamon oqsoqlanib turgan. Nazarimizda, fuqarolar huquqi va erkinligini mustahkamlashga qaratilgan siyosatni o'zida aks ettirib kelgan. O'zbekiston Oliy sudi, Sovet davrida barcha sudlar qatori fuqarolik ishlari masalasini ko'rishda, mafkuradan kelib chiqib, "sinfiy siyosat" ni yoritib berish va yot sinflarga qarshi kurashish vazifasini bajarib kelgan. Qolaversa, bu ishlar qator murakkabliklarni keltirib chiqarib, turli faoliyatni o'zining asl mohiyatidan uzoqlashtirgan va fuqarolar manfaati emas, balki davlat siyosatiga xizmat qiladigan vositaga aylangan.

Oliy sudning jinoiy ishlar yuzasidan olib borgan faoliyati asosiy bo'lish bilan birga murakkab faoliyat edi. Negaki, mazkur davr sovet totalitar tuzumining shakllanish bosqichi ediki, bunda uning oldiga tuzumni qattiq rejimlar asosida, kerak bo'lsa qatag'on yo'li bilan saqlab qolish birinchi galdagi vazifa sifatida qaralgan. Barcha nazorat organlari singari, sudlarni yagona tizimga birlashtirgan O'zbekiston Oliy sudi ham bu maqsadni amalga oshiruvchi vosita rolini bajarib keldi. Ammo bu faoliyat bir tomonlama xususiyat kasb etmaydi. Ya'ni faqatgina jazolash yoki tahlika solish tarzida namoyon bo'lmasdan, ko'p hollarda ma'rifatli kishilar ommaviy jazoga tortildi. Biroq, bu markazning bizga o'tkazgan tazyiqlariga, mafkuraga asosan sodir bo'ldi.²⁴

Oliy sud jinoiy ishlarni ko'rib chiqishni sud hay'ati va kassatsiya hay'ati yordamida amalga oshirgan. Jinoiy va fuqarolik ishlari bo'yicha, 1925-yilning 1-sentabriga qadar bo'lgan davrda jinoiy ishlar bo'yicha 20 ta ish ko'rib chiqilgan. Ulardan ikkitasining muhokamasi to'xtatilgan qolgan 18 ta ish bo'yicha 44 kishi turli darajada jazoga hukm etilgan: 4 kishi 1 yildan 3 yilgacha; 12 kishi 3 yildan 5 yilgacha; 9 kishi 5 yildan 10 yilgacha ozodlikdan mahrum etilish jazosi bilan; 5 kishi oliy jazoga otuvga; 3 kishi shartli hukm asosida mahkum etilgan; 11 kishining ishi tegishli dalillar bo'lmaganligi sababli oqlash hukmi chiqarilgan. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, jazoga tortilganlarning aksariyat ko'p qismini 3 yildan 5 yilgacha va 5 yildan 10 yilgacha bo'lgan ozodlikdan mahrum etish jazolari tashkil etadi.²⁵

Statistik ma'lumotlarga qaraganda O'zbekiston Oliy sudi va boshqa sudlar tomonidan 1934-yildan 1936-yilgacha ko'rib chiqilgan jinoiy ishlarni tahlil qilganda asosiy jinoyat turlari kamayganligi ko'rsatiladi. Jinoyatchilar soni ham 32 %ga kamaygan. Chunki, 30-yillar o'rtalariga kelganda yuqorida sanab o'tgan aksilinqilobiy jinoyat turlari ya'ni, o'lkadagi milliy istiqloqlilik harakatlari to'la barham topgan edi.

²⁴ Мингбоев У. Олий суд: кеча ва бугун. –Тошкент: "Камалак", 1994. 7 бет.

²⁵ O'zMA. P-86- fond, 1-ro'xat, 2450-ish, 278-varoq.

Har qanday davlat barpo etilar ekan, avvalambor uning o'ziga xos xususiyatlari, istiqbol yo'llari, boshqaruv prinsiplarini ochib berish, kadrlar bilan bog'liqligini ta'kidlab o'tish lozim. Xuddi shunday bizning xududda ham sotsialistik tuzumga asoslangan davlat barpo etilgach, ko'pgina sohalarda bo'lgani kabi Oliy sud tizimida ham eng muammoli masala kadrlar masalasi bo'lib qoldi. Bu masalaning nozik tomoni shunda ediki, g'oyaviy-mafkuraviy jihatdan talabga javob bera oladigan mutaxassislar yetishtirish birinchi galdagi vazifalardan edi. Shu sababli, yuqori malakaga ega bo'lgan, eski tuzum davrida yetishib chiqqan kadrlardan voz kechildi. Ularga ishonchsizlik bilan qaraldi.²⁶ Ammo yangi tuzum uchun zarur bo'lgan yuqori malakali kadrlar zaxirasi mavjud emas edi. O'zbekiston SSR Oliy sudi tashkil etilgan vaqtda ham kadrlar masalasida nihoyatda og'ir vaziyat vujudga keldi. Mazkur fikrlarni quyidagi arxiv xujjatlari ham tasdiqlaydi. Bu Oliy sudning 1925-yildagi shtatlar jadvalida ko'rsatilgan bo'lib,²⁷ jadval RSFSR Oliy sudi Turkiston bo'linmasi shtatlar jadvalining o'zgarishsiz qolgan shakli hisoblanadi. Ko'rsatilishicha undagi huquqshunos mutaxassislar va umumiy xodimlar soni 41 kishi deb qayd etilgan: Oliy sud raisi-1 nafar; Oliy sud raisi o'rinbosari - (u sud hay'ati raisi vazifasini bajargan) - 1 nafar; Oliy sud raisi ikkinchi o'rinbosari (kassatsiya hay'ati raisi vazifasini bajargan) - 1 nafar; hay'at a'zolari - 6 nafar; Kassatsiya hay'ati ma'ruzachilari - 4 nafar; muhim ishlar bo'yicha tergovchilar - 4 nafar; hay'at kotiblari - 2 nafar; adabiy tarjimon-1 nafar; texnik ishchilar - 18 nafar; jismoniy mehnatga jalb qilinganlar - 13 nafar.

Ko'rsatilgan mazkur xodimlar jadvali amaldagi miqdordan ancha bo'lib, aslida 35 tadan oshmagan. Birgina hay'at a'zolarining soni 6 ta emas 3 kishi bo'lgan. Bu holatni talab darajasida tayyor xodimlar bo'lmaganligi, ammo bunday xodimlarga ehtiyoj nihoyatda yuqori bo'lganligi²⁸ bilan izohlash mumkin.

Agar vaziyatni xolisona baholaydigan bo'lsak, bunday holatda kadrlar yetishmasligi masalasi dolzarb turganligi uchun bu kabi xodimlar ishiga ko'z yumib o'tilganligini ko'rish mumkin. Ularda ish malakasi yetishmas-da, siyosiy qarashlar to'g'ri kelardi. Axir sho'rolar tuzumi davrida, kadrlarning bilim va salohiyati emas, ko'proq mafkuraviy qarashlari hisobga olinardi. Doimiy ravishda kadrlar malakasini oshirish, Oliy sudga malakali kadrlar tayyorlash va ularning salmog'ini kengaytirish muammosi ta'kidlab kelindi. Muammoni hal etish uchun, viloyat va xalq sudlarida amaliy tajriba to'plagan kadrlarni Oliy sudga jalb etish va huquqshunos kadrlar tayyorlovchi o'quv yurtlarini tashkil etish masalasi ko'tarilgan.

1940-yil 26-iyunda SSSR Oliy Soveti Prezidiumi "Sakkiz soatlik ish kuni, yetti kunlik ish haftasiga o'tilishi munosabati bilan ishchi – xodimlarning korxonalar va muassasalardan o'zboshimchalik bilan ketishini ta'qiqlash to'g'risida"gi Farmonni qabul qilgan. Farmonga asosan muassasa va korxonalarda ish vaqti 24-soat davomida uzluksiz 3-smenada tashkil qilingan.

²⁶ Мингбоев У. Верховный суд Республики Узбекистан. – Ташкент: "Ўзбекистон", 1994, 8 - стр

²⁷ О'зМА. Р-86-fond, 1-ro'yxat, 2450-ish, 274-varaq.

²⁸ О'зМА. Р-86-fond, 1-ro'yxat, 2450-ish, 275-varaq.

Farmonga ko'ra korxonalar yoki tashkilotlardan ruxsatsiz ishdan ketgan ishchilar sudga berilib xalq sudining hukmi bilan 2 oydan 4 oygacha qamoq jazosiga hukm etilishi belgilangan.

O'zbekiston SSRda ham ishchilarni mehnat intizomini buzganlikda ayblab yoppasiga jazolash ishlari boshlab yuborilgan. 1940-yil sentabrga kelib, O'zbekistondagi sudlarga mehnat intizomini buzilganligi yuzasidan 13 877 ta ish kelib tushgan. Shulardan 10 861 ta ish sud tartibida ko'rib chiqilgan. Xuquqbuzarlikning eng ko'pi Toshkent viloyatida sodir bo'lgan. 1940-yil 1-sentabrgacha bo'lgan ma'lumotlarda keltirilishicha, Toshkent viloyati sudlariga 6896 ta ish kelib tushgan. 5504 ta ish ko'rib chiqilgan. Farg'ona viloyatida 2784 ta ish kelib tushgan, shundan 2548 ta ish ko'rib chiqilgan. Buxoro viloyatiga 1345 ta ish, 1210 tasi ko'rib chiqilgan. Samarqand viloyatida 1782 ta ishdan 1534 tasi ko'rilgan. Xorazm viloyatida 521 ta ishdan 485 tasi, Qoraqalpog'iston ASSRda 549 ta ish kelib tushgan. Shundan 465 tasi ko'rib chiqilgan. 1940-yil 1-sentabrda O'zbekiston SSRdagi barcha sudlar tomonidan 10738 kishi jazoga hukm qilingan. Viloyatlar bo'yicha ko'rib chiqiladigan bo'lsa, Toshkent viloyatida 4786 kishi, Farg'onada 2353, Buxoroda 1215, Xorazmda 467, Qoraqalpog'iston ASSRda 526, Samarqandda 1391 kishi jazoga hukm qilingan. Shundan mahkumlarning 1206 tasi ruxsatsiz ish joyidan ketganligi uchun 9509 tasi ishga kechikib kelganligi uchun jazoga tortilgan. Maxkumlarning 4462 tasiga – 46% 3 oygacha, 5035 tasiga 53.9% 3 oydan 6 oygacha axloq tuzatish ishlari jazosi berilgan. Ruxsatsiz ish joyidan ketganlarning 922 tasiga 2 oydan 4 oygacha qamoq jazosi tayinlangan²⁹

Sud tomonidan qabul qilingan hukm bir kundan kechiktirmasdan ijro etilgan. Natijada sudlanuvchi hukm yuzasidan apelyatsiya va kassatsiya shikoyati berishga ulgurilmagan. Mahkumlarga nisbatan yengil jazo tayinlagan, sudyalarga nisbatan ta'sir kuchaytirilgan. 1940-yil sentabr oyida o'z xizmat vazifasiga "mas'uliyatsizlik" bilan qaragani uchun, O'zbekiston SSRda 17 nafar xalq sudyasi mahalliy kengashlar tomonidan lavozimidan olinib, ulardan 10 tasi jinoiy javobgarlikga tortilgan³⁰

1941-yil iyun oyida Germaniyaning Sovet Ittifoqiga hujumi Sovet xalqining tinch hayotini buzdi. Urush davri sharoitida sotsialistik qonuniylikni mustahkamlash ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etdi.

O'zbekiston SSR Oliy sudi, SSSRning barcha sud organlari singari, urush davridagi qonunlarni bajarish uchun kurashgan, Sovet Armiyasini mustahkamlashga yordam bergan, dushmani mag'lub etish uchun zarur bo'lgan tartibni himoya qilgan, sotsialistik qonunchilikni aniq va qat'iy bajarish uchun kurashgan. U dushman ayg'oqchilarini, diversantlarni, yolg'on, ig'voli mish-mishlarni tarqatuvchi shaxslarni, vahimachilarni va boshqa qonun buzuvchilarni qattiq jazolagan. SSSR Oliy Kengashi Prezidiumining 1941-yil 22-iyundagi Farmoni harbiy holat e'lon qilingan hududlarda harbiy tribunallar to'g'risidagi Nizomni tasdiqladi³¹. Shu bilan bir qatorda O'zbekistonda ham

²⁹ O'zMA, P-904-fond, 9-ro'yaxat,282- ish, 225-varaq.

³⁰ O'zMA, P-904-fond, 9-ro'yaxat,282- ish, 226-varoq.

³¹ Ведомости верховного совета СССР. 1941 г., №29.

Ittifoqning qolgan respublikalarida bo'lgani kabi harbiy tribunallarga taqdim etilgan ayrim jinoiy ishlar respublika sud organlari sudlovidan va O'zbekiston SSR Oliy sudidan chiqarildi. Bunga harbiy xizmatchilar tomonidan sodir etilgan barcha jinoyatlar, bosqinchilik to'g'risidagi ishlar, davlat jinoyati to'g'risidagi ishlar va 1932-yil 7-avgustda qabul qilingan Qonunda nazarda tutilgan jinoyatlar kirgan³².

Harbiy ma'murlar urush davri sharoitlari tufayli zarur deb hisoblasalar, keng ko'lamli chayqovchilik, zararli bezorilik va boshqa jinoyatlar to'g'risidagi ishlarni harbiy tribunallarga yuborish huquqiga ega edilar. Ayrim toifadagi ishlar Respublika sud organlari yurisdiksiyasidan butunlay chiqarildi. Shunday qilib, 1941-yil 26-dekabrda SSSR Oliy Kengashi Prezidiumi tomonidan farmon chiqarilgan farmonga ko'ra harbiy sohaga xizmat ko'rsatadigan korxonalarining ishchilari va xodimlari urush davriga safarbar qilingan deb e'lon qilindi va ushbu korxonalar uchun doimiy ishlashga tayinlandi. Ushbu korxonalardan ruxsatsiz chiqib ketish dezertirlik hisoblangan. Bunga 5 yildan 8 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish shaklida qamoq jazosi berilgan. Ushbu holatlar harbiy tribunallar yurisdiksiyasiga berilgan³³. Shunday qilib, yurtimizda 1941-yilda fashizmga qarshi urushning boshlanishi barcha tizimlarda bo'lgani kabi O'zbekiston sud organlari, ya'ni Oliy sudda jinoyat uchun jazo tayinlash siyosatini ham qat'iy lashtirdi. Bu davrda sanoat va qishloq xo'jaligi urushga safarbar qilinganligi sababli jinoyat turlariga nisbatan jazo choralari kuchaytirilgan. Ayniqsa, davlat mulkini o'g'irlash, talon-taroj qilish, belgilangan mehnat joyini tashlab ketish yoki bo'yin tovlashga qat'iy jazo tayinlanganligini ko'rish mumkin. Ya'ni, mana shu davrda, sudlarning jinoiy ishlar bo'yicha olib borgan faoliyati, sovetcha sudning asl mohiyatini o'zida aks ettirgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“O'zbekiston Oliy sudining xuquq tizimi va sovet qonunchiligini mustahkamlashdagi o'rni (1946-1991-yillar)”** deb nomlangan bo'lib, unda O'zbekiston SSR Oliy sudining ikkinchi jaxon urushidan keyingi yillardagi faoliyati, Oliy sudning sud va xuquq – tartibot tizimida tutgan o'rni, “Qayta qurish” davrida Oliy sud tizimi faoliyatini isloh qilish masalalari tahlil qilingan.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda sovet sud-huquq tizimida bir qator o'zgarishlar amalga oshirildi. Urush davrida amalda bo'lgan favqulodda tartiblar birin-ketin tugatila boshlandi. Sud tizimida harbiy tribunallarining yurisdiksiyasi cheklanib, soni ham sezilarli darajada qisqartirildi. Shuningdek, harbiy tribunal a'zolarini tayinlash, jinoyat ishlarini 24 soat davomida ko'rib chiqish va hukm yuzasidan shikoyat berilmaslik kabi urush davri tartiblari bekor qilindi³⁴.

Ikkinchi jahon urushidan keyin 1948-yilgacha sudyalarning intizomiy javobgarligi masalasi yakuniy hal qilinmadi. 1948-yil 15-iyulda SSSR Oliy

³²М.В.Кожевников, История советского суда, 1917-1956 гг. М., госюриздат, 1957, стр. 329.

³³ Ведомости верховного совета СССР, 1942, №2.

³⁴ Komolov D.P. Judicial system of the Uzbekistan srrin the years after the second World War (on the example of 1946-1960). Look to the past. 2021, vol. 4, issue 9, pp.23-3

